



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - iyul

VI-67-134-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida

Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida "Bulung'urtumangaz" gaz ta'minoti bo'limi boshlig'i Sh.Doniyarovning hisoboti yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jalik va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishi muhokamasida qabul qilingan qaror va takliflarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1 Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida "Bulung'urtumangaz" gaz ta'minoti bo'limi boshlig'i Sh.Doniyarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Bulung'urtumangaz" gaz ta'minoti bo'limi (Sh.Doniyarov)ga:

tuman bo'yicha qolgan xonadonlarga elektron (ASKUG) gaz hisoblagich uskunalarni o'rnatish ishlarini to'liq nihoyasiga yetkazish;

xonadonlarga o'rnatilayotgan gaz hisoblagichlarning afzalliklari to'g'risida aholiga keng tushuntirish ishlarini olib borish;

o'rnatish ishlarini o'z vaqtida hamda sifatli bajarish maqsadida, qo'shimcha

ravishda malakali payvandchi chilangarlarni jalb qilish choralarini ko‘rsh;

iste‘molchilarga gaz yetkazib berish bo‘yicha shartnoma shartlari asosida gaz yetkazib berilishini ta‘minlash;

tabiiy gaz yetkazib berish to‘xtatilgan hududlarga aholiga suyultirilgan gaz balonlari yetkazib berilishini ta‘minlash va alohida nazoratga olish;

mahallalar kesimida taqsimlangan reja jadval asosida mahallalarga suyultirilgan gaz balonlarni o‘z vaqtida yetkazib berish;

tumanda suyultirilgan gaz balonlarni xatlovdan o‘tkazib, bir oy muddatda yetishmayotgan suyultirilgan gaz balonlar bilan ta‘minlash;

gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularga ruxsatsiz ulanishlarini aniqlash uchun doimiy (davriy) ko‘zdan kechirish, gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o‘z vaqtida tashkil qilish vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi X.Bozorovga tumandagi xonadonlarga elektron (ASKUG) gaz hisoblagich uskunalarni o‘rnatish hamda aholisiga suyultirilgan gaz yetkazib berilishini nazorat qilish, deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Bozorov) ijrosini ta‘minlash tuman hokimining o‘rinbosari (A.Elmurotov) hamda “Bulung‘urtumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi (Sh.Doniyarov) zimmlariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Astonov